



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSUDALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 347.189.8(049)(575.1)

FUQAROLIK SUDLARIDA NIZOLARNI HAL QILISHDA QONUNYIY VAKILLIK: MAQOMI, ASOSLARI VA TARTIBI

Norboyev Jo'rabek Erkin o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: j.norboyev1996@mail.ru

ORCID: 0000-0002-1967-6007

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik protsessida qonuniy vakilning ishtiroki, qonuniy vakillikning asoslari va ishda ishtirok etish tartibi, qonuniy vakilning ishni sudda ko'rish bosqichida majburiy ishtiroki masalalari tahlil etildi. Rivojlangan xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchilikda qonuniy vakillik faoliyatining takomillashtirishga doir amaliy tajribasining afzalliklari o'rganildi. Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Unda sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Shuningdek, vakillik instituti sohasiga oid qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotimizning maqsadi fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik institutini huquqiy jihatdan tahlil qilish hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligida qonuniy vakillik faoliyatining takomillashtirishga doir amaliy tajribasining afzalliklari o'rganiladi. Shuningdek, qonuniy vakillik faoliyatini va qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: fuqarolik protsessida vakil, qonuniy vakil, sud, advokat, yurist.

ЮРИДИЧЕСКОЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЬСТВО В ГРАЖДАНСКИХ СУДАХ ПРИ РАЗРЕШЕНИИ СПОРОВ: СТАТУС, ОСНОВАНИЯ И ПРОЦЕДУРА

Норбаев Журабек Эркин угли,

магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы участия законного представителя в гражданском процессе, основы юридического представительства и порядок участия в деле, обязательное участие законного представителя на стадии рассмотрения дела в суде. Были изучены преимущества практического опыта развитых зарубежных стран по совершенствованию деятельности юридического представительства в гражданско-процессуальном законодательстве. Данная статья как доктринальное исследование содержит анализ законодательных актов и научно-теоретических источников. В ней изучаются научные концепции отрасли, взгляды, выводы и мнения ученых-теоретиков. Также проведен сравнительно-правовой анализ законодательства в сфере института представительства. Целью нашего исследования является правовой анализ института законного представительства при разрешении споров в гражданских судах. Посредством данной статьи анализируются вопросы участия законного представителя в гражданском процессуальном законодательстве на сегодняшний день, основания законного представительства и порядок участия в деле, обязательное участие законного представителя на стадии рассмотрения дела в суде. Изучаются преимущества изучения практического опыта развитых зарубежных стран по совершенствованию деятельности законного представительства в гражданском процессуальном законодательстве. Также были внесены предложения и рекомендации по совершенствованию деятельности юридического представительства и законодательства.

Ключевые слова: представитель по гражданским делам, законный представитель, суд, адвокат.

LEGAL REPRESENTATION IN CIVIL COURTS IN DISPUTE RESOLUTION: STATUS, GROUNDS AND PROCEDURE

Norboyev Jurabek Erkin ugli,

Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article analyzes the issues of participation of a legal representative in civil proceedings, the basics of legal representation and the procedure for participation in the case, the mandatory participation of a legal representative at the stage of consideration of the case in court. The advantages of the practical experience of developed foreign countries in improving the activities of legal representation in civil procedure legislation were studied. This article, as a doctrinal study, contains an analysis of legislative acts and scientific and theoretical sources. It examines the scientific concepts of the industry, views, conclusions and opinions of theoretical scientists. A comparative legal analysis of legislation in the field of the institution of representation was also carried out. This article, as a doctrinal study, contains an analysis of legislative acts and scientific and theoretical sources. It examines the scientific concepts of the industry, views, conclusions and opinions of theoretical scientists. The purpose of our research is a legal analysis of the institution of legal representation in dispute resolution in civil courts. This article analyzes the issues of participation of a legal representative in Civil procedural legislation today, the grounds for legal representation and the procedure for participation in the case, the mandatory participation of a legal representative at the stage of consideration of the case in court. The advantages of the practical experience of developed foreign countries in improving the activities of legal representation in Civil procedural legislation are studied. Proposals and recommendations were also made to improve the activities of the legal representation and legislation.*

Keywords: representative in civil cases, legal representative, court, lawyer.

Kirish

Bugungi kunda jamiyatimizdagi huquqiy munosabatlarning rivojlanishi bevosita sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan nizolarning hajmi ortishiga hissa qo'shmoqda. Xususan, jamiyatimizda eng ko'p uchraydigan muammoli holatlar fuqarolik ishlari doirasida bo'lib, ularni hal etish, sudlarda ishtirok etish va o'zining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi rivojlanib bormoqda. Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi fuqarolik protsessual qonunchilikda nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik institutining takomillashuviga asos bo'lmoqda.

Tadqiqotimizning maqsadi fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik institutini huquqiy jihatdan tahlil qilish. Ushbu maqola orqali bugungi kundagi fuqarolik protsessual qonunchiligida qonuniy vakilning ishtiroki, qonuniy vakillikning asoslari va ishda ishtirok etish tartibi, qonuniy vakilning ishni sudda ko'rish bosqichida majburiy ishtiroki masalalari tahlil etildi. Rivojlangan xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchilikda qonuniy vakillik faoliyatining takomillashtirishga doir amaliy tajribasining afzalliklari o'rganiladi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada fuqarolik protsessida vakillik tushunchasining yuridik tabiati ochib berilgan. Shuningdek, fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillikning turlari amaldagi qonun hujjatlari asosida tavsiflangan. Muallif fuqarolik protsessida vakillik institutini sivilist huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida tasniflagan. fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik institutining muammolari va ularni bartaraf qilishda huquqiy mexanizmlarni samarali qo'llash usullari ilmiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan. Professional va qonuniy vakillikning huquqiy holati o'rtasidagi farqli jihatlar tahlil qilingan.

Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Unda sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, vakillik instituti sohasiga oid qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganishdan boshlangan, ushbu tushunchalarni rivojlantirish bilan davom ettirilgan hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga oid xulosalarga kelish bilan yakunlangan. Mazkur xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik qilish huquqini ta'minlash maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga asosan har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasiga asosan har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

Shuningdek, fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishi mumkin. Bunda ularning ishni ko'rishda bevosita ishtirok etishi, ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi. Fuqarolik ishlarini ko'rishda tashkilotlar ishlarni o'z rahbarlari yoki vakillari orqali ishtirok etadilar.

“Fuqarolik protsessida vakillik instituti fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44, 116-moddalarida mustahkamlangan sud orqali himoyalani va malakali yuridik yordam olish kabi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Suddagi vakil – ishonch bildiruvchi shaxs nomidan va uning manfaatlari uchun berilgan vakolat doirasida protsessual harakatlar sodir etadigan hamda huquqlarini amalga oshirishda unga yordam beradigan jismoniy shaxsdir”.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud vakillikni ikki turga ajratadi – qonuniy, ya'ni majburiy vakillik (*FPK 51-moddasi*) va shartnoma bo'yicha, ya'ni ixtiyoriy vakillik (*FPK 52-moddasi*).

Vakillikning barcha turlari vujudga kelishining umumiy asosi huquq normasidir. Bu ma'noda vakillikning barcha turlari qonuniy, qonuniy vakillik – qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan hollarda yuzaga keladigan vakillikdir. Ishonch bildiruvchi muomalaga layoqatsizligi yoki qisman muomalaga layoqatligi sababli o'z ixtiyori bo'yicha o'ziga vakil tanlay olmaydi, shuning uchun vakilni qonun belgilaydi [2, 12-b]. Qonuniy vakillik muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki o'lgan deb e'lon qilingan shaxslar huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini fuqarolik ishlarini sudga ko'rishda majburiydir. Eng muhim jihati, qonuniy vakillik kelib chiqishi uchun huquq va manfaatlari himoya qilinayotgan shaxs roziligi talab etilmaydi.

Fuqarolik sudlarida ishni ko'rishda, advokatlar, nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan yoki yon shajara bo'yicha qarindoshlar, shuningdek er (xotin) yoxud uning qarindoshlari, yuridik shaxslarning xodimlari – shu yuridik shaxslarning ishlari bo'yicha, notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari – shu tashkilotlar a'zolarining ishlari yuzasidan shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil bo'lishi mumkin.

Sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkin. Vakilning vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Shu o'rinda aytish joizki, voyaga yetmagan shaxslar, vasiylik va homiylik belgilangan shaxslar, sudyalari, prokurorlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, sud devoni xodimlari, manfaatlari vakolat beruvchining manfaatlariga zid bo'lgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yordam ko'rsatgan shaxslar, shu nizo bilan bog'liq mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediator sifatida ishtirok etganlar, sudya, prokuror, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon

bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan shaxslar fuqarolik ishlarini sudda ko'rish jarayonida taraflarning vakillari bo'lib ishtirok eta olmaydilar [3, 42-b.].

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi. Fuqaroning muomalaga layoqatsizligi esa uning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatiga ega emasligini anglatadi. Ruhiiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni uning vasiyi amalga oshiradi. Shuningdek, fuqaro muomala layoqatining cheklanganligi deganda, uning spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilishi natijasida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yishi oqibatida unga homiylik tayinlanishi, mayda maishiy bitimlardan boshqa bitimlarni homiyni roziligi bilangina tuzishi mumkinligi keltiriladi. Qonunga muvofiq muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sudda ularning homiylari tomonidan himoya qilinadi. Qonun fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish oqibatida bunday fuqaroga vasiylik belgilashni nazarda tutgan bo'lib, bunday shaxsning huquq va manfaatlari sudda uning vasiyi tomonidan himoya qilinadi.

Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) himoya qiladi.

Ishonch bildiruvchi o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilish bo'yicha sudda ish yuritishni shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshiradi.

Suddagi vakillikning ushbu turining vujudga kelishi uchun qonunda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan quyidagi holatlar asos bo'ladi: fuqaro muomalaga layoqatsiz deb topilsa yoki muomala layoqati cheklansa, unga nisbatan vasiy yoki homiy tayinlanadi, bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy boshqarib turish zarurati mavjud bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bilan tuziladigan ishonchli boshqaruv to'g'risidagi shartnoma asosida ish olib boradigan shaxs tayinlanadi. Qonuniy vakillik asosan qarindoshlik munosabatlari asosida yuzaga keladi. Vasiylik yoki homiylik ota-ona vafot etganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ota-ona muomalaga layoqatsiz deb topilganda, ular kasal bo'lganda, ota-ona uzoq muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlari himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, ota-ona tarbiyalash, davolash muassasalari va aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasadagi o'zining bolasini olishdan bosh tortganda, bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda, voyaga yetgan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan ularni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish maqsadida, ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlari himoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi [9, 24-b.].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ayrim harakatlarni amalga oshirishda qonuniy vakillar moddiy huquq normasida nazarda tutilgan cheklovlarga amal qilishlari talab etiladi. Masalan, Oila kodeksining 184-moddasiga ko'ra, vasiy vasiylik va homiylik organlarining roziligi bilan:

- vasiylikdagi shaxs nomidan notarial tartibda tasdiqlanishi lozim bo'lgan bitim (shartnoma)lar tuzishga;
- vasiylikdagi shaxsga qarashli bo'lgan mol-mulkni taqsimlash, bir yildan ortiq muddatga garovga qo'yish yoki ijaraga berishga;
- vasiylikdagi shaxs nomidan meros va (yoki) hadya olishdan voz kechishga;
- vasiylikdagi shaxsga qarashli turar joyi ayirboshlashga;
- vasiylikdagi shaxsga tegishli har qanday huquqdan voz kechishga haqlidir.

Undan tashqari, oila qonunchiligida vasiy va homiy, ularning eri (xotini) va yaqin qarindosh vasiylik va homiylikdagi shaxs bilan bitimlar tuzishga, shuningdek vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs bilan vasiy yoki homiyning eri (xotini) va yaqin qarindoshlari o‘rtasidagi sud ishlarini yuritishda vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning vakili bo‘lishga haqli emas. Shuningdek, Fuqarolik qonunchiligida ishonchli boshqaruvchi boshqaruvga topshirilgan ko‘chmas mol-mulkni boshqa shaxsga berishni va garovga qo‘yishni faqat bu hol mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirishga haqli.

Tadqiqot natijalari tahlili

Vasiylik yoki homiylik vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxsning yashash joyi bo‘yicha, agar shaxs muayyan yashash joyiga ega bo‘lmasa, vasiyning yoki homiyning yashash joyi bo‘yicha belgilanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentyabrdagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida Nizom”da [10, 23-b.] vasiylik va homiylik organlarining vakolatlari, ularning vazifalari, vasiylik va homiylik organlarining alohida funksiyalari va boshqa masalalar o‘rin olgan.

Suddagi vakillarning vakolatlarini rasmiylashtirish vakillikning qaysi turga mansubligidan kelib chiqib, turli tartibda amalga oshiriladi: 1) ota-onalar farzandlarining tug‘ilganligi haqidagi guvohnomani hamda o‘z pasportlarini taqdim etadilar. Farzandlikka olganlar qo‘shimcha ravishda farzandlikka olganligi haqida hujjatni ham taqdim etadilar. Oila kodeksining 151-moddasiga muvofiq, farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko‘ra, vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosiligi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga to‘g‘ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi. Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi (Oil kodeksining 174-moddasi). Shunday ekan, ular sudga bu haqdagi hujjatni taqdim etishlari talab etiladi.

Ma‘lumki, umumiy qoidaga ko‘ra, suddagi vakillarning o‘zi voyaga yetgan, ya‘ni muomalaga layoqatli bo‘lishi talab etiladi. Voyaga yetmagan shaxslarning sud vakil bo‘la olmasligi mamlakatimiz qonunchiligidan tashqari MDHga a‘zo ayrim davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligida ham nazarda tutilgan. Xususan, Belarus Respublikasi FPKning 73-moddasida voyaga yetmagan shaxslar sud vakil bo‘la olmasligi nazarda tutilgan. Biroq mazkur moddada ko‘rsatilishicha, voyaga yetmagan ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan qonuniy vakil sifatida ishtirok etishlari mumkinligi nazarda tutilgan [5, 78-b]. FPKning 55-moddasida esa voyaga yetmagan ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan qonuniy vakil sifatida sud ishtirok etishlari nazarda tutilmagan.

MDHga a‘zo davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligida sud vakil bo‘la olmaydigan shaxslarning ro‘yxati kengroq berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Ukraina FPKning 41-moddasiga muvofiq, mazkur protsessda sud majlisi kotibi, tarjimon, ekspert, mutaxassis, guvoh sifatida ishtirok etayotgan shaxslar sud vakil bo‘la olmaydilar. Ozarboyjon Respublikasi FPKning 71-moddasi ikkinchi qismiga ko‘ra, Ozarboyjon Respublikasi Milliy Majlisi va Naxchivan Avtonom Respublikasi [4, 45-b] Oliy Majlisi deputatlari ular qonuniy vakil sifatida, shuningdek tegishli organining vakili sifatida qatnashgan hollardan tashqari, sud vakil sifatida ishtirok etishga haqli bo‘lmasligi belgilab qo‘yilgan. Undan tashqari, agar shaxs ish bo‘yicha qarama-qarshi tarafning vakili sifatida avval unga yuridik yordam ko‘rsatgan bo‘lsa yoki mazkur ishning ko‘rilishida avval sudya, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, guvoh, xolis yoxud sud majlisi kotibi bo‘lib ishtirok etgan bo‘lsa, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslarga nisbatan qarindoshlik munosabatlarida bo‘lsa ham, sud vakil sifatida ishtirok etishi mumkin emasligi mustahkamlab qo‘yilgan [13, 18-b].

Mazkur holatda sud majlisida voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakillari sifatida kimlar ishtirok etishi borasida savol tug‘iladi. Chunki ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha voyaga yetmagan shaxslarning qonuniy vakillari uning ota-onalari javobgarining protsessual holatini

egallaydilar. Shu o'rinda ishni ko'rayotgan sud ishda ishtirok etish uchun vasiylik va homiylik organi vakillarini jalb qilishi shart va ushbu organlar prokuror bilan birgalikda voyaga yetmagan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladilar.

Xulosalar

Xulosa va taklif sifatida, mamlakatimizning fuqarolik protsessual qonunchiligida davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning boshqa shaxslar huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat qilishi uchun manfaati himoya qilinayotgan shaxslarning iltimosnomasi mavjud bo'lishi nazarda tutilmagan. Biroq bunday iltimosnomaning mavjud bo'lishi haqidagi talab fuqarolik protsessida ishning manfaatdor shaxslar xohish-irodasi asosida qo'zg'atilishini nazarda tutuvchi erkin huquq prinsipining kengaytirilishiga olib keladi. Ayrim hollarda, xususan muomalaga layoqatsiz yoki voyaga yetmagan fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish talab etilganida bu to'g'ridagi arizalar sudga manfaatdor shaxslarning yoki ularning qonuniy vakillari iltimosnomasidan qat'i nazar taqdim etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi 2010-yil 14-maydagi 05-sonli qarori [Decree of the president of the Republic of Uzbekistan on measures to ensure more effective organization of the process of acquisition of rights over land parcels and other immovable property]
2. Grajdanskiy protsessualnyy kodeks Respubliki Belarus ot 11 yanvarya 1999 goda, Natsionalnyy reestr pravonnykh aktov Respubliki Belarus, 1999 g., № 18–19, 2/13. 81 [Civil Procedural Code of the Republic of Belarus]
3. Yodgorov X. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi [Procedure for applying to the court for civil cases]. Tashkent, Baktria press, 2016, 224 p.
4. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessi [Civil Procedure]. Tashkent, Baktria press, 2014, 424 p.
5. Mamasiddiqov M., Yodgorov X., Davletov O'. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. Tashkent, Kompleks Print, 2020, 380 p.
6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 329-moddasi 1-qismining 31-bandi [The tax code of the Republic of Uzbekistan].
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi qarorining 3-bandi. [Decision of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan "on the resolution of the court"]
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi "Fuqarolik ishlarini apellyatsiya tartibida ko'rish amaliyoti haqida"gi qarorining 37-bandi. [Decree of the president of the Republic of Uzbekistan on measures to ensure more effective organization of the process of acquisition of rights over land parcels and other immovable property]
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi "Fuqarolik ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida"gi qarori [Decree of the president of the Republic of Uzbekistan on measures to ensure more effective organization of the process of acquisition of rights over land parcels and other immovable property]
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori [Decree of the president of the Republic of Uzbekistan on measures to ensure more effective organization of the process of acquisition of rights over land parcels and other immovable property]
11. Nizamov.J. "Sud huquq islohotlari sharoitida fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujatlarini takomillashtirish masalalari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiya mteriallari to'plami –T., 2014y. 96-b. Issues of improving the attacks of the law on civil judicial proceedings in

the conditions of judicial law reforms”. Collection of scientific and practical conference materials of the Republic]

12. Yodgorov X. Sud tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi axborotnomasi [Introduction of modern information and communication technologies into the judicial system]. Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan.

13. Oqyulov O., Mexmonov. Q. “Fuqarolik sud ishlarini yuritishda axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari”//“Sud huquq islohotlari sharoitida fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujatlarini takomillashtirish masalalari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami –T., 2014 y. 23-b. [Issues of the use of Information Technology in the conduct of civil court cases. Issues of improving the attacks of the law on the conduct of civil court cases in the conditions of judicial law reforms]. Collection of scientific and practical conference materials of the Republic.

14. Bondarenko V.Ye., Fransiforov A.Yu., Fransiforov Yu.V. Grajdanskiy protsess. Uchebnoe posobie dlya vuzov. M.: Yurayt, 2019. 250 s. [Civil procedure. Textbook for universities].

15. Vlasov A. A. Grajdanskiy protsess. Uchebnik i praktikum. M.: Yurayt, 2019. 472 s. [Civil procedure. Textbook and workshop].

16. Grajdanskiy protsess: uchebnik dlya studentov vysshiy yuridicheskix uchebnyx zavedeniy / D.B. Abushenko, K.L. Branoviskiy, V.P. Volojanin i dr.; otv. red. V.V. Yarkov. 10-ye izd., pererab. i dop. M.: Statut, 2017. 702 s. [Civil procedure: textbook for students of higher law schools]

17. Grajdanskiy protsess. Uchebnik / pod red. Treushnikova M. K. M.: Gorodes, 2018. 832 s. [16. Civil procedure. Textbook / ed . Treushnikova M. K. M.: Gorodets]

18. Grajdanskiy protsess [Civil procedure. Textbook, ed. V.V. Yarkova. M.: Infotropik Media, 2016. 784 s.

19. Grajdanskiy protsess. Uchebnik i praktikum / pod red. Lebedeva M. Yu. M.: Yurayt, 2019. 394 s. [Civil procedure. Textbook and workshop, ed . Lebedeva M. Yu .]

20. Grajdanskiy protsess. Uchebnik i praktikum / pod red. Lebedeva M. Yu. M.: Yurayt, 2020. 446 s. [Civil procedure. Textbook and workshop / ed . Lebedeva M. Yu .]

21. Grajdanskiy protsess. Uchebnik. / pod red. Treushnikova M. K. M.: Gorodes, 2018. 832 s. [Civil procedure. Textbook and workshop / ed . Lebedeva M. Yu .]

22. Jenetl S. Z., Nikiforov A. V. Grajdanskiy protsess. Uchebnik. M.: RIOR, Infra-M, 2018. 416 s. [Civil procedure. Textbook and workshop / ed . Lebedeva M. Yu .]

23. Zavadskaya L. N. Grajdanskiy protsess v sxemax s kommentariyami. 5-ye izdanie. Pererabotannoe i dopolnennoe. M.: Eksmo-Press, 2019. 160 s. [Civil procedure. Textbook and workshop / ed . Lebedeva M. Yu .]

24. Kovtkov D.I. Kassatsionnoe proizvodstvo v grajdanskom protsesse Rossiyskoy Federatsii i nekotorykh zarubejnykh stran. M.: Yustitsinform, 2018. 188 s [Cassation proceedings in civil proceedings of the Russian Federation and some foreign countries.]

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.